

BADIIY MATNNI STRUKTUR-SEMIOTIK TAHLIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Zamonaviy adabiyotshunoslikda rivojlangan mamlakatlarda yuzaga kelib shakllanishga ulguragan strukturalizm, semiotika, germevntika sohalariga qiziqish kuchayib bormoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki davr, jamiyat, hayot rivojlanib borgan sayin yangi, nisbatan mukammal ta'limot, nazariyalarga ehtiyoj oshadi. Bu o'rinda biz ushbu maqolada bevosita daxldor bo'lgan badiiy matnni tahlil qilishda semiotika va strukturalizmning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritdik. Semiotika belgi haqidagi fan sifatida juda ko'p sohalarga kirib borgan. Belgi haqidagi qarashlarni badiiy adabiyotga nisbatan qo'llash ham katta samara berayotir. Chunki adabiyotshunoslikning tadqiq manbai bo'lgan badiiy matn (qisqartirgan holda matn deyish mumkin) boshdan oxir belgilar tizimidan iborat.

Kalit so'zlar. Semiotika, strukturalizm, badiiy matn, semiotic tizim, leksiya, shakl, estetik-poetik tizim, kodlar, muallif, g'ayri matn, matn bepoyonligi, belgi.

ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНО-СЕМИОТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Саидова Райхоной Абдуганиевна
Бухарский государственный педагогический институт, доцент, (PhD)

Аннотация. В современном литературоведении растет интерес к областям структурализма, семиотики и герменевтики, возникшим в развитии стран. Это естественно, наконец. Потому что по мере развития времени, общества и жизни возрастает потребность и новых, относительно совершенных учений и теорий. На этом этапе мы задумались об особенностях семиотики и структурализма в анализе художественного текста, что имеет непосредственное отношение к данному состоянию. Семиотика – наука, изучающая знаки и многие другие области. Применение визуальных символов к благочестивой литературе также очень эффективно. Потому что художественный текст (сокращенный текст), являющийся исследовательским источником литературоведения, состоит из системы знаков от начала до конца.

Ключевые слова. Семиотика, структурализм, художественный текст, семиотическая система, лекция, форма, эстетико-поэтическая система, коды, автор, нетекст, бесконечность текста, знак.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF STRUCTURAL-SEMIOTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT

Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna
Bukhara State Pedagogical Institute, associate professor, (PhD)

Abstract. Interest in the fields of structuralism, semiotics, and hermeneutics, which have emerged in developed countries, is growing in modern literary studies. This is natural, of course. Because as time, society, and life develop, the need for new, relatively perfect teachings and theories increases. At this point, we thought about the specific features of semiotics and structuralism in the analysis of the literary text, which is directly related to this article. Semiotics, as a science of signs, has entered many fields. Applying the views of the symbol to fiction is also very effective. Because the artistic text (abbreviated text) which is the research source of literary studies consists of a system of signs from beginning to end.

Keywords. Semiotics, structuralism, artistic text, semiotic system, lecture, form, aesthetic-poetic system, codes, author, non-text, text infinity, sign.

O'tgan asr davomida rivojlangan g'arb mamlakatlarida strukturalizm va semiotika bo'yicha ko'pgina nazariy ishlar yaratilgan. Birinchi bo'lib fransuz etnologi Klod Levi-Stross yigirmanchi asrning qirqinchi-elliginchi yillarida yaratgan tadqiqotlarida struktur metodlardan foydalandi. U Markaziy va Janubiy Amerika mahalliy xalqlari folklori namunalari struktur metodlar asosida tadqiq etgan va samarali natijalarga erishgan. Strukturalizmning alohida fan sohasida shakllanishi va jahon miqyosida e'tirof etilishida yana bir fransuz allomasi Rolan Bartning xizmatlari katta bo'ldi. Bu olim struktur usullar bilan chegaralanib qolmay, bu sohaga zamonaviy semiotika yutuqlarini ham olib kirgan.

R. Bartning "Tillarning urushi", "Muallifning o'limi", "Matn lazzati", "Bir hikoyaning struktural tahlili", "Belgi tassurotlari", "Asardan matn sari", "Adabiyot va ramziy til", "Mifologiyalar" kabi ishlari alohida e'tirofga loyiqdir. Bundan tashqari, g'arb adabiyotshunosligidagi Jan Marining "Strukturalizm kalit", Lokanning "Matnlar" kabi tadqiqotlari strukturalizm muammolariga bag'ishlangan.

Strukturalizm va semiotika bo'yicha rus adabiyotshunosligida ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Mixayil Baxtinning "polifonik taffakkur" haqidagi nazariyasi g'arb estetikasida strukturalizmning paydo bo'lishida muhim manbalardan biri bo'lgan.

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida rus olimi Yu.M. Lotman Rossiyada "struktur maktab"ga asos solgan edi. Bu davrda uning tashabbusi bilan strukturalizm muammolarida bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazilgan. Bu olim 1972-yili "Analiz poeticheskogo teksta" ("Poetik matn tahlili") tadqiqotini nashr ettirgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek adabiyotshunosligida bu fan XXI asrning boshlaridan shakllana boshladi. Bu yo'nalishda hozircha biror-bir yirik tadqiqot amalga oshirilmagan bo'lsa-da, turli maqolalar, tezislar chop etilgani bu boradagi izlanishlarning boshlanganini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali strukturalistik tahlillarga bag‘ishlangan bir qancha izlanishlarni e‘lon qildi. Jumladan, G‘ayrat Murodov, Qurdosh Qahramonov, Dilmurod Quronov, Suvon Meliyev, Muhammadjon Xolbekov, Uzoq Jo‘raqulovlar bu borada ma‘lum bir ishlarni amalga oshirdilar.

Strukturalizm - o‘tgan asrning 50-60 yillarida shakllangan fan sohasi. F. De Sossyur ta‘limotini badiiy adabiyotga qo‘llashga urinish natijasida yuzaga kelgan. Fransuz strukturalizmining yirik namoyandasi Rolan Bart strukturalizمنى faoliyat deb hisoblaydi: “Strukturalizm undan foydalanuvchi hamma uchun faoliyat, ya‘ni muayyan sohadagi fikriy amaliyotning tartibga tushgan izchilligi sifatida yuzaga chiqadi” [1]. Strukturalizm ta‘limoti o‘zagida “struktura” tushunchasi turadi. Struktura atamasini sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir, deb izohlasak bo‘ladi. Struktura tizim tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u tizim qaror topishining tuzilishi va ichki shakli bo‘lib, bu shakl mazkur tizim elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi.

Strukturalizmdagi shakl, ya‘ni strukturaning (strukturalizm da shakl strukturaga salkam teng tushuncha hisoblanadi) ijodkor tabiati, ya‘ni mavjud ma‘noni kuchaytirishi, hatto yangi ma‘no yaratish iqtidori haqidagi etakchi aqida bu ilmiy oqimning eng kuchli jihati hisoblanadi. Struktural tahlil nigohi yakka hodisaga qaratilganda, uning ichki va quyi qatlamlariga kirish, voqea va obrazlarning ramzlashuv darajasini aniqlah, avval ko‘zga tashlanmagan ma‘no o‘choqlarini ko‘rgazmali tarzda ochish imkoniyati tug‘iladi. Struktur-semiotik yondashuv muayyan ilmiy usul bo‘lib, u butun asar yoki ma‘lum kontekst zaminidagi badiiy ma‘no va mazmun teranliklari kashf etilishiga ko‘maklashishni maqsad qilib oladi. Strukturalizm da badiiy matnga yagona estetik-poetik tizim deb qaraladi. Strukturalistlarning fikricha, “badiiy matn son-sanoqsiz birliklar majmuasidan iborat. Mana shu birliklarda mavjud bo‘lgan kod(semiotikada belgi)lar bir-biri bilan aloqa-munosabatga kirishadi. Bunday munosabatlar matn yaxlitligi va harakatini yuzaga keltiradi” [2].

“Struktural metodlar –strukturalizm da qo‘llaniladigan usullar majmui. “Ular, asosan, quyidagilardan iborat:

- 1) tahlil uchun badiiy matn namunasini tanlash;
- 2) tanlangan matnni bir necha marta sinchiklab sekin va juda sekin o‘qish va mohiyatini uqishga urinish;
- 3) matn yoki uning ma‘lum bir qismini bo‘lak(leksiya)larga ajratish;
- 4) matn asosida bo‘laklarni raqamlab chiqish;
- 5) tahlil jarayoni(har bir bo‘lakdagi kod(belgi) mufassal, atroflicha ko‘rib chiqiladi, Bu jarayonda qiyosiy usuldan foydalanish mumkin emas, ya‘ni bo‘lakdagi kod yoxud kodlar badiiy matndagi yoxud boshqa matndagi kodlar bilan muqoyasa etilmaydi(ammo bu talabga strukturalistlar hamma vaqt rioya etavermaganlar);
- 6) tahlil jarayoni yakunlangach, kodlararo munosabatlar aniqlanadi;
- 7) pirovardda barcha fikrlar umumlashtiriladi, strukturalistlarning ta‘biri bilan aytganda, matnning nazariy modeli yaratiladi” [3].

Struktur-semiotik tahlil jarayonida muallif(ijodkor) e‘tibordan soqit qilinadi. Bunday usul shoir yoki adibnini butunlay inkor etish, uning xizmatlarini tan olmaslik degani emas. Muallifni matndan ajratish va asosiy e‘tiborni badiiyat namunasiga qaratish tadqiq va tahlil teranligi uchun xizmat qiladi. Bunday holda ijodkor shaxsi kamsitilmaydi, aksincha uning qalamiga mansub badiiy ijod namunasi juda teran, atroflicha o‘rganib chiqiladi. Natijada matnning mohiyati oydinlashadi, undagi ichki qatlamlar aniqlanadi, ijod mahsulining badiiy-estetik qimmati ma‘lum bo‘ladi.

Badiiy matnda muallif bevosita ishtirok etib, voqea, qahramon kabilarga o‘z munosabatini bildirib tursa, tabiiyki, muallifni e‘tibordan soqit qilishning hech bir imkoni bo‘lmay qoladi. Bunday vaziyatda ijodkorga badiiy matn tarkibidagi obrazlardan biri sifatida qaraladi. Bunday usul muallif matnning yakkayu yagona xo‘jayini degan qarashni rad etish maqsadiga xizmat qiladi.

An‘anaviy adabiyotshunoslikda muallif doimo asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Badiiy asardagi har qanday yutuq shakshubhasiz muallifning xizmati deb qarab kelinadi. Yaxshi asar yozgan ijodkor maqtalib, uning xizmatlari ta‘kidlab ko‘rsatiladi. Ba‘zan hatto ko‘pincha tahlil jarayonida badiiy asar bir chekkada qolib ketib aytiladigan asosiy fikrlar qalamkashga qaratiladi. Bunday holda badiiy asarning adabiy-estetik tizim tarzidagi xususiyatlari etarli darajada ochilmay qolishi tabiiy.

Jahon so‘z san‘atining ayrim namoyandalari badiiy asarning voqea tizimi, qahramonlari xarakteri hamma vaqt ham o‘zlarining izm-ixtiyorlarida emasligini payqagan edilar. “Rus yozuvchisi Ivan Turgenev “O‘talar va bolalar” romanini yozishga kirishar ekan, bosh qahramon Bazarovni to‘la-to‘kis salbiy qahramon sifatida tasvirlashni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan ekan. Biroq voqea oqimi, xarakter mantig‘i taqozosiga ko‘ra bu obraz adibning niyatiga zid ravishda ijobiylashib borgan va Bazarov taraqqiyparvar yoshlarning umumlashma ijobiy timsoliga aylanib qolgan” [4].

Shunga yaqin hodisani o‘zbek nasri tarixida ham ko‘rsa bo‘ladi. “Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yozishga kirishar ekan, asosiy qahramonlardan biri bo‘lmish Kumushbibi o‘limini o‘z ijodiy rejasiga kiritganmi yoki yo‘qmi – buni biz bilmaymiz. Ammo uning o‘g‘li Habibulla Qodiriyning eslashicha, atoqli nosir romanda Kumush vafotini yozayotgan vaqtda yig‘lagan ekan” [5]. Mazkur yodnomadan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijodkor sevimli qahramoni o‘limini istamagan. Ammo matnning tabiiy oqimi, uning mustaqil qonuniyatlari ushbu obraz mavtini taqozo etgan va muallif matn talabiga bo‘ysungan.

“Badiiy matn mustaqil maydondir. U faqat o‘ziga aloqador qonuniyatlar doirasidagina harakat etadi va o‘z mohiyatini namoyon qiladi. Badiiy matnning mustaqilligi, avvalombor shu narsada ko‘rinadiki, u nafaqat muallifga, shuningdek, muayyan bir mafkura, ta‘limot, dunyoqarashga ham bo‘ysunmaydi. Bu matn har qanday g‘oya yoxud idealni rad qiladi degani emas. Matn badiiy qatlamlarida ma‘lum bir nuqtai nazar, qarashlarni ifoda etgan mafkura va nazariyalar aks etadi, albatta, Ammo matn ularga bir yoqlama(tendenstioz) munosabatda bo‘lmaydi. Badiiy matn tarkibidagi obrazlar bunday ta‘limot va dunyoqarashlarga inkor yoki tasdiq jihatidan yondashishlari mumkin, biroq matn bunday qarashlarga nisbatan betarafligini saqlab qoladi”.

Semiotikada matnning bepoyonligi haqidagi fikr doimo ta‘kidlanib kelinmoqda. Matnning poyonsizligi deganda,

ikki narsa e'tiborga olingan:

Badiiy matn hududidagi belgilarning son-sanoqsizligi.

Badiiy matn tahlili davomida yangidan yangi ma'nolarning kashf etilishi hamda bu jarayonning muttasil davom etishi.

Badiiy matnni g'ayrimatndan farqlash lozim. Matn mukammal adabiy-estetik tizimdir. Undagi har bir birlik(so'z, jumla, gap, matnning ayrim bir bo'lagi) o'z o'rnini va vazifasiga ega. Ularni o'zgartirish yoxud qisqartirish mumkin emas. Agar shunday qilinsa, matn mukammalligiga putur etadi va badiiy-estetik tizim izdan chiqadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad o'z esdaliklarida yozishicha, u tajriba tariqasida mashhur so'z ustasi Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalari ba'zi bir so'zlarni ma'nodoshiga almashtirishga harakat qilgan. Ammo bu ishdan hech bir natija chiqmagan. Matn o'z tarkibidagi birliklardan voz kechishni istamay boshqa lisoniy birliklarni qabul qilmagan. Bu hodisa shundan dalolat beradiki, matn daxlsiz hududdir. Bu adabiy-badiiy hudud boshqa tashqi xurujlardan juda mustahkam ihotalangan.

Har qanday badiiy asar matn bo'lavermaydi. Matn talablariga javob bera olmaydigan asar g'ayrimatn hisoblanadi. G'ayrimatnni struktur-semiotik jihatdan tahlil qilishning iloji yo'q. Chunki unda belgilarning mukammal tizimi shakllanmagan. G'ayrimatnning ziddi va muxolifi hisoblangan badiiy matn adabiyotshunosga jiddiy va teran tahlil va tadqiq uchun noyob materialdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. М.: 1989, С. 254.
2. Meliyev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida.- O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent. 2009. №2 B12
3. S Rayhonoy, G Murodov STRUCTURAL SEMIOTIC ANALYSIS OF A LITERARY TEXT // International journal of scientific and technology research. – 2020. No.2.– С. 3319-3323.
4. Бахтин М.М. Проблема текста. В его кн.: Эстетика словесного творчества.- М.: 1979.
5. Murodov G'. "Yulduzli tunlar" romanida badiiy kodlar. – BuxDU ilmiy axboroti, 2000, 3-son.
6. Saidova R. A. SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION // Theoretical & Applied Science. – 2020. No.2.–С. 201-205.